



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 09 | pp. 93-101 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IJTIMOIIY YO‘NALTIRILGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IDENTIFIKATSIYA QILISH METODIKASI



Yerjanov Shohrux Kabil o‘g‘li

O‘zbekiston ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirish assotsiatsiyasi direktori

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirkorlik subyektlarini identifikatsiya qilish metodikasi ishlab chiqilgan. Muammoning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda bunday subyektlarning rasmiy reestri yuritilmaydi, natijada na nishonli qo‘llab-quvvatlash chorasini manzilga yetkazish, na ilmiy tadqiqot uchun bosh to‘plamni shakllantirish mumkin. Janubiy Koreya, Italiya, Qozog‘iston va Yevropa Ittifoqi amaliyotidagi mezonlar qiyosiy tahlil qilingan hamda ularning mantiqiy tuzilishidagi tafovutlar ko‘rsatilgan. Muallif tomonidan ikki darajali maqom tizimi va to‘rtta mezondan iborat aralash mantiqli identifikatsiya modeli taklif etilgan; har bir mezon uchun mavjud ma’muriy hisobotlarga tayanuvchi tasdiqlash manbai belgilangan. Reestr mavjud bo‘lmagan sharoitda empirik tanlanma shakllantirish uchun ko‘p ramkali (multi-frame) protokol va qamrov to‘liqligini baholashning qayta qamrash (capture–recapture) usuli asoslangan. Metodikaning ishonchliligini tekshirish tartibi hamda birinchi va ikkinchi tur xatolarning siyosiy narxi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxona, identifikatsiya mezonlari, sertifikatlash, reestr, ko‘p ramkali tanlanma, qayta qamrash usuli, o‘lchash ishonchliligi, chegaraviy qiymat.

Аннотация. В статье разработана методика идентификации субъектов социально ориентированного предпринимательства. Актуальность проблемы обусловлена тем, что в Узбекистане реестр таких субъектов не ведётся, вследствие чего невозможно ни адресно довести меру поддержки, ни сформировать генеральную совокупность для научного исследования. Проведён сравнительный анализ критериев, применяемых в Южной Корее, Италии, Казахстане и Европейском союзе, и показаны различия в логической структуре этих критериев. Автором предложена двухуровневая система статуса и модель идентификации из четырёх критериев со смешанной логикой; для каждого критерия определён источник подтверждения, опирающийся на существующую административную отчётность. Обоснованы многорамочный протокол формирования эмпирической выборки и метод повторного охвата для оценки полноты покрытия. Проанализированы процедура проверки надёжности методики и политическая цена ошибок первого и второго рода.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, социальное предприятие, критерии идентификации, сертификация, реестр, многорамочная выборка, метод повторного охвата, надёжность измерения, пороговое значение.

Abstract. The article develops a methodology for identifying socially oriented entrepreneurial entities. The problem is pressing because Uzbekistan maintains no register of such entities, which makes it impossible either to deliver targeted support to an identifiable addressee or to construct a

population frame for empirical research. Criteria applied in South Korea, Italy, Kazakhstan and the European Union are compared, and differences in their logical structure are demonstrated. The author proposes a two-tier status system and a four-criterion identification model with mixed logic, specifying for each criterion a verification source drawn from existing administrative reporting. A multi-frame sampling protocol and a capture–recapture procedure for assessing coverage completeness are justified for settings without a register. Reliability testing procedures and the policy cost of Type I and Type II errors are analysed.

Keywords: social entrepreneurship, social enterprise, identification criteria, certification, register, multi-frame sampling, capture–recapture, measurement reliability, threshold value.

Kirish

Ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha har qanday siyosiy chora bitta oddiy savolga javob berishni talab qiladi: kim qo‘llab-quvvatlanadi? Bu savol ko‘rinishidan texnik bo‘lsa-da, amalda butun tizimning ishlashini belgilaydi. Soliq imtiyoz, subsidiya yoki davlat xaridida ustunlik — bularning barchasi aniq belgilangan subyektlar doirasiga yo‘naltirilishi kerak. Aks holda imtiyoz umumiy tadbirkorlik massasi bo‘ylab tarqalib ketadi va o‘z maqsadiga erishmaydi.

O‘zbekistonda Tadbirkorlik kodeksi bilan “ijtimoiy tadbirkorlik” va “ijtimoiy korxona” tushunchalari huquqiy maqom oldi. Ammo tushunchani belgilash bilan uni operatsional qilish — ya’ni muayyan xo‘jalik yurituvchi subyektning ushbu ta’rifga tushishi yoki tushmasligini tekshirib bo‘ladigan tartibga aylantirish — bir xil narsa emas. Hozircha bunday tartib ham, tegishli reestr ham mavjud emas.

Ushbu bo‘shliq ikki tomonlama muammo tug‘diradi. Siyosat nuqtai nazaridan — qo‘llab-quvvatlash manzilsiz qoladi. Ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan esa muammo yanada o‘tkir: ijtimoiy tadbirkorlik bo‘yicha har qanday empirik tadqiqot birinchi navbatda bosh to‘plamni o‘zi shakllantirishga majbur bo‘ladi, ammo bu jarayonning metodikasi asoslanmasa, olingan natijalarning ishonchliligini isbotlab bo‘lmaydi. Aynan shu sababli identifikatsiya masalasi mustaqil metodologik muammo sifatida qaralishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi — ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirkorlik subyektlarini identifikatsiya qilishning mezonlar tizimini ishlab chiqish va reestr mavjud bo‘lmagan sharoitda empirik tanlanma shakllantirish protokolini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy korxonani operatsional ta’riflash bo‘yicha eng ta’sirchan yondashuv EMES ilmiy tarmog‘i tomonidan ishlab chiqilgan. C.Borzaga va J.Defurni [1] hamda J.Defurni va M.Nissens [2] ijtimoiy korxonani uch o‘lchovda — iqtisodiy-tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy maqsad va ishtirokchilikka asoslangan boshqaruv — belgilaydigan ko‘rsatkichlar to‘plamini taklif qilgan. Ushbu yondashuvning muhim uslubiy xususiyati shundaki, ko‘rsatkichlar qat’iy chegara sifatida emas, ideal tip sifatida qaraladi va tashkilotlar ularga turli darajada yaqinlashadi.

Yevropa Komissiyasining mamlakatlar ekotizimini xaritalash bo‘yicha hisobotida [3] ayni shu uch o‘lchovga asoslangan operatsion ta’rif qo‘llanilgan va u milliy huquqiy shakllarning xilma-xilligiga qaramay taqqoslashni ta’minlagan. J.Kerlin [4] esa ta’rifning o‘zi mamlakatning institutsional merosiga bog‘liqligini ko‘rsatib, universal ta’rif izlashning cheklovlarini asoslagan.

Amaliy jihatdan mezonlar tizimi turli mamlakatlarda turlicha mantiqda qurilgan. Janubiy Koreyada 2007-yilgi qonun asosida sertifikat olish uchun tashkilot bir vaqtning o'zida bir necha shartni bajarishi kerak — jumladan foydasining kamida uchdan ikki qismini ijtimoiy maqsadga qayta yo'naltirishi va boshqaruvda xodimlar hamda xizmat oluvchilarning ishtirokini ta'minlashi [5]. Italiyada 381/1991-sonli qonun mehnatga integratsiya kooperativlari uchun xodimlarning kamida 30 foizi belgilangan toifalarga mansub bo'lishini talab qiladi [6]. Qozog'istonda esa 2022-yil 1-yanvardan amal qiluvchi tartibga ko'ra, ijtimoiy tadbirkor maqomi to'rtta muqobil shartdan kamida bittasi bajarilganda beriladi: nochor guruh vakillari xodimlar tarkibining kamida 51 foizini tashkil etishi; tadbirkorning o'zi shunday guruhga mansubligi; nochor guruhlarga tovar yoki xizmat yetkazib berilishi; yoki daromadning kamida 50 foizi ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilishi [7].

Adabiyot tahlili shuni ko'rsatadiki, mezonlar tarkibi emas, ularning mantiqiy tuzilishi va chegaraviy qiymatlari asosiy farqlovchi omil hisoblanadi. Bu masala esa maxsus tadqiqot predmeti bo'lgan emas. Mahalliy adabiyotda tadbirkorlik subyektlarini tasniflash asosan hajm ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilgan [12; 13], ijtimoiy yo'naltirilganlik mezonini sifatida esa qaralmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodik xarakterga ega bo'lib, unda qiyosiy huquqiy-iqtisodiy tahlil, mezonlarni loyihalash (criteria design) va o'lchash nazariyasining standart vositalari qo'llanilgan. Mezonlar tizimini baholashda uchta talab asos qilib olingan: mazmuniy validlik — mezonlar to'plami tushunchaning barcha muhim jihatlarini qamrab olishi; ishonchlilik — turli ekspertlar bir xil subyektni bir xil tasniflashi; hamda tekshiriluvchanlik — har bir mezon mustaqil manbadan tasdiqlanishi mumkinligi.

Chegaraviy qiymatlarni kalibrlash uchun xorijiy amaliyotdagi qiymatlar asos sifatida olingan va ular O'zbekistondagi bozorning shakllanish bosqichiga moslashtirilgan. Tanlanma shakllantirish protokoli yashirin to'plamlarni (hidden populations) tadqiq qilish amaliyotidan olingan ko'p ramkali yondashuv va qayta qamrash usuliga asoslangan.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilayotgan metodika nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, uning empirik aprobatasiyasi — pilot tanlanmada sinovdan o'tkazish va ekspertlar o'rtasidagi kelishuv koeffitsiyentini hisoblash — keyingi bosqich vazifasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

1. Xorijiy mezonlarning qiyosiy tahlili. To'rt yurisdiksiyadagi mezonlar tarkibi va mantiq'i 1-jadvalda keltirilgan. Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, mezonlar to'plami deyarli bir xil — ijtimoiy maqsad, nishonli guruh, foydani taqsimlash va boshqaruv — ammo ularning bog'lanish mantiq'i tubdan farq qiladi.

Mantiqdagi tafovutning oqibati aniq. "VA" mantiq'i (Koreya) to'plamning sifatini kafolatlaydi, ammo kirish to'sig'ini ko'taradi. "YOKI" mantiq'i (Qozog'iston) qamrovni kengaytiradi, ammo kategoriyani loyqalashtiradi: masalan, faqat "nochor guruhlarga tovar yetkazib berish" sharti bo'yicha maqom olgan subyekt ijtimoiy korxonadan ko'ra oddiy iste'mol bozori ishtirokchisiga yaqin bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Qozog'iston reestrda subyektlar sonining nisbatan kamligi ko'rsatadiki, keng mantiq ham o'z-o'zidan

yuqori qamrovni kafolatlamaydi — masala mezonlarda emas, rag‘batning jozibadorligida ham bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Ijtimoiy korxona maqomini berish mezonlarining qiyosiy tahlili¹

Mezon	Janubiy Koreya	Italiya (B tipi)	Qozog‘iston	Yevropa Ittifoqi (operatsion ta‘rif)
Ijtimoiy maqsad	Ta‘sis hujjatida majburiy	Qonun bilan belgilangan	Majburiy	Asosiy o‘lchovlardan biri
Nishonli guruh ulushi	Faoliyat turiga qarab belgilanadi	Xodimlarning kamida 30%	Xodimlarning kamida 51% (muqobil shartlardan biri)	Chegaraviy qiymat belgilanmagan
Foydani qayta investitsiya qilish	Kamida 2/3 qismi	Kooperativ qoidalari bo‘yicha cheklangan	Daromadning kamida 50% (muqobil shartlardan biri)	Foyda taqsimotining cheklanishi
Boshqaruvda ishtirok	Xodimlar va xizmat oluvchilar ishtiroki majburiy	Kooperativ boshqaruvi	Talab qilinmaydi	Ishtirokchilikka asoslangan boshqaruv
Mezonlar mantig‘i	“VA” — barcha shartlar birga	“VA” — qonuniy tur doirasida	“YOKI” — kamida bitta shart	Ideal tipga yaqinlik darajasi
Amaliy oqibati	Qat‘iy filtr, sifatli to‘plam	Tor, ammo barqaror toifa	Keng qamrov, loyqa chegara	Taqqoslash uchun qulay, maqom bermaydi

2. Taklif etilayotgan model: ikki darajali maqom. Shakllanayotgan bozor sharoiti ikki qarama-qarshi xavfni bir vaqtda tug‘diradi. Chegara yuqori qo‘yilsa, maqom oluvchilar soni nolga yaqin qoladi va tizim ishga tushmaydi. Chegara past qo‘yilsa, imtiyozga da‘vogar subyektlar oqimi kuchayadi va “maqom arbitraji” xavfi paydo bo‘ladi. Ushbu ikki xavfni bitta chegara bilan bir vaqtda boshqarib bo‘lmaydi.

Shu sababli ikki darajali maqom tizimi taklif etiladi. Birinchi daraja — “ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirkorlik subyekti” — past kirish chegarasiga ega bo‘lib, u faqat qaytarilmaydigan resurs talab qilmaydigan choralarga: kredit kafolati, konsultatsiya,

¹ Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

o'quv dasturlari va axborot ko'magiga kirish huquqini beradi. Ikkinchi daraja — "ijtimoiy korxona" — yuqori chegaraga ega va budget xarajati bilan bog'liq choralarga: subsidiya, soliq imtiyozi va davlat xaridida ustunlikka kirish huquqini beradi. Bunday tabaqalash fiskal riskni faqat qat'iy tekshiruvdan o'tgan subyektlar bilan cheklaydi va ayni paytda yangi subyektlar uchun tizimga kirish yo'lini ochiq qoldiradi.

3. Mezonlar tizimi va chegaraviy qiymatlar. Model to'rtta mezondan iborat bo'lib, ularning bog'lanishi aralash mantiqqa asoslanadi: birinchi mezon majburiy, qolgan uchtasidan kamida ikkitasi bajarilishi shart. Bu yechim Koreyaning qat'iyligi bilan Qozog'istonning moslashuvchanligi o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi va nishonli guruhga xizmat ko'rsatuvchi hamda nishonli guruhni ish bilan ta'minlovchi subyektlarni bir tizimda qamrab olish imkonini beradi.

2-jadval

Taklif etilayotgan identifikatsiya mezonlari va tasdiqlash manbalari²

No	Mezon	I daraja (kirish)	II daraja (to'liq)	Tasdiqlovchi manba
C1	Ijtimoiy maqsadning ta'sis hujjatida mustahkamlanishi (majburiy)	Talab qilinadi	Talab qilinadi	Ustav; davlat ro'yxatidan o'tkazish organi ma'lumotlari
C2	Nishonli guruh xodimlarining ulushi	kamida 20%	kamida 30%	Ijtimoiy sug'urta va pensiya badallari hisoboti
C3	Sof foydaning ijtimoiy maqsadga qayta yo'naltirilishi	kamida 50%	kamida 2/3	Moliyaviy hisobot; ta'sischilar qarori
C4	Boshqaruvda xodimlar yoki xizmat oluvchilar ishtiroki	tavsiya etiladi	majburiy	Boshqaruv organi bayonnomalari; ichki nizom
—	Mezonlarni bog'lash mantig'i	C1 + C2–C4 dan kamida 1 tasi	C1 + C2–C4 dan kamida 2 tasi	—

Chegaraviy qiymatlarni tanlashda ikki mulohaza hisobga olingan. Birinchidan, ikkinchi daraja qiymatlari xalqaro amaliyotdagi mustahkamlangan me'yorlarga tenglashtirilgan — xodimlar ulushi bo'yicha Italiya normasi (30%), foydani qayta investitsiya qilish bo'yicha Koreya normasi (2/3). Bu tanlov milliy maqomni xalqaro taqqoslashga yaroqli qiladi. Ikkinchidan, birinchi daraja qiymatlari ataylab pastroq belgilangan, chunki shakllanayotgan bozorda asosiy vazifa saralash emas, subyektlarni ko'rinadigan holga keltirishdir.

² Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

Bundan tashqari chegaralarni vaqt bo'yicha qat'iylashtirish tartibi tavsiya etiladi: har uch yilda birinchi daraja chegarasi bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Bunday degressiv yondashuv boshlang'ich bosqichda kirishni rag'batlantiradi va keyinchalik to'plam sifatini oshiradi.

4. Tasdiqlash tartibining dizayni. 2-jadvalning oxirgi ustuni metodikaning amaliy jihatdan eng muhim qismidir. Har bir mezon uchun tasdiqlovchi manba shunday tanlanganki, u allaqachon mavjud bo'lgan majburiy hisobotga tayanadi va subyekt uchun yangi hisobot yuki yaratmaydi. Xususan, nishonli guruh xodimlari ulushi ijtimoiy sug'urta va pensiya badallari hisoboti orqali tekshiriladi — bu ma'lumot moliyaviy oqibatga ega bo'lgani uchun soxtalashtirish nisbatan qiyin va uni mustaqil solishtirish mumkin.

Ushbu tamoyil — “yangi hisobot emas, mavjud hisobotni qayta o'qish” — ma'muriy xarajatni keskin kamaytiradi va tizimning ishga tushish tezligini oshiradi. Maqom berilgandan so'ng u har yili avtomatik tarzda tasdiqlanishi, mezonlarga muvofiqlik ikki yil ketma-ket buzilgan taqdirda esa to'xtatilishi tavsiya etiladi.

5. Reestr mavjud bo'lmagan sharoitda tanlanma shakllantirish. Metodika joriy etilgunga qadar o'tkaziladigan har qanday empirik tadqiqot bosh to'plamni o'zi qurishga majbur. Bu holat statistikada yashirin to'plam (hidden population) deb ataladi va uning uchun ishlab chiqilgan standart yechim — ko'p ramkali tanlanma (multi-frame sampling), ya'ni bir necha mustaqil ro'yxatni birlashtirish va ular o'rtasidagi kesishmani tahlil qilishdir. Tavsiya etilayotgan ramkalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ko'p ramkali tanlanma manbalari³

No	Ramka	Kutilayotgan qamrov	Asosiy og'ishi (bias)
R1	Nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalari huzuridagi korxonalar	Yuqori, ammo tor toifada	Faqat bandlik yo'nalishini qamraydi
R2	Xalqaro donor loyihalari benefitsiarlari ro'yxati	O'rtacha	Grant olganlar tomon og'ish
R3	Nodavlat notijorat tashkilotlar ro'yxatidagi tadbirkorlik faoliyati yurituvchi subyektlar	O'rtacha	Notijorat shakl tomon og'ish
R4	Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar bitiruvchilari	Past	Yosh va shahar subyektlari tomon og'ish
R5	Davlat xaridlari portalidagi ijtimoiy yo'naltirilgan	Past	Faqat davlat bilan ishlaganlar

³ Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

N ^o	Ramka	Kutilayotgan qamrov	Asosiy og‘ishi (bias)
	y etkazib beruvchilar		
R6	Hududiy hokimliklar va mahalla tuzilmalari ma'lumotlari	O'rtacha	Rasmiy tanilganlik tomon og'ish
R7	Qorbola (snowball) usuli bilan kengaytirish	To'ldiruvchi	Tarmoq ichidagi subyektlar tomon og'ish

Har bir ramkadan olingan subyektlar skrining anketasi (ilovaga qarang) orqali 2-jadvaldagi mezonlarga solishtiriladi va faqat kamida birinchi daraja talabiga javob berganlari tanlanmaga kiritiladi.

6. Qamrov to'liqligini baholash. Ko'p ramkali yondashuvning muhim ustunligi shundaki, u nafaqat subyektlarni topish, balki topilmaganlar sonini baholash imkonini ham beradi. Buning uchun ikki mustaqil ramka (masalan, R1 va R3) natijalari qayta qamrash (capture-recapture) usuli bilan solishtiriladi. Agar birinchi ramkada n_1 ta, ikkinchisida n_2 ta subyekt aniqlangan va ularning m tasi ikkala ramkada ham uchragan bo'lsa, bosh to'planning taxminiy hajmi $N \approx (n_1 \times n_2) / m$ formulasi orqali baholanadi.

Ushbu baholash tadqiqot uchun ikki jihatdan qimmatli. Birinchidan, u tanlanma qamrovini raqamda ifodalash va shu orqali natijalarning umumlashtirilish darajasini asoslash imkonini beradi — bu esa reestr mavjud bo'lmagan sharoitda o'tkazilgan tadqiqotga nisbatan bildiriladigan asosiy e'tirozga javob beradi. Ikkinchidan, olingan baho kelajakda tashkil etiladigan rasmiy reestrning kutilayotgan hajmini prognoz qilishda va uni ma'muriy jihatdan rejalashtirishda foydalanilishi mumkin.

7. Ishonchlilikni tekshirish va xatolik xavflari. Mezonlarning ishonchliligi ekspertlar o'rtasidagi kelishuv koeffitsiyenti orqali tekshiriladi: bir xil subyektlar to'plami ikki mustaqil ekspert tomonidan tasniflanadi va Koen kappa koeffitsiyenti hisoblanadi; $\kappa \geq 0,70$ qiymati qoniqarli deb qabul qilinadi. Kelishuv past bo'lgan mezonlar qayta ta'riflanishi lozim — amaliyotda bunday muammo ko'pincha C4, ya'ni boshqaruvda ishtirok mezoni bo'yicha yuzaga keladi, chunki u eng kam formallashtirilgan.

Chegaraviy qiymatlarni tanlash pirovardida ikki turdagi xatolik o'rtasidagi almashuvga borib taqaladi. Birinchi tur xatolik — haqiqiy ijtimoiy korxonaning to'plamga kiritilmasligi — ilmiy tadqiqot uchun jiddiy, chunki u natijalarni buzadi, ammo davlat budjeti uchun narxi yo'q. Ikkinchi tur xatolik — mezonlarga aslida javob bermaydigan subyektning kiritilishi — tadqiqot uchun ham, siyosat uchun ham qimmat, chunki u budjet resursini nomaqsadli sarflashga olib keladi va tizimga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Shu sababli birinchi darajada nisbatan yumshoq, ikkinchi darajada esa qat'iy chegara qo'llash asoslidir: fiskal xarajat bilan bog'liq qarorlar aynan ikkinchi darajada qabul qilinadi.

Xulosa va takliflar

Birinchidan, ijtimoiy korxonani identifikatsiya qilish texnik emas, institutsional masaladir: u qo'llab-quvvatlash tizimining birlamchi sharti bo'lib, usiz boshqa barcha vositalar manzilsiz qoladi.

Ikkinchidan, xorijiy amaliyotning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatlar mezonlar tarkibi bo'yicha emas, ularning bog'lanish mantig'i va chegaraviy qiymatlari bo'yicha farqlanadi. "VA" mantig'i to'plam sifatini, "YOKI" mantig'i esa qamrovni ustuvor qo'yadi.

Uchinchidan, muallif tomonidan ikki darajali maqom tizimi taklif etildi. Birinchi daraja qaytarilmaydigan xarajat talab qilmaydigan choralarga, ikkinchi daraja esa budjet xarajati bilan bog'liq choralarga kirish huquqini beradi. Bu yechim kirish to'sig'ining pastligi bilan fiskal xavfsizlikni bir vaqtda ta'minlaydi.

To'rtinchidan, mezonlar tizimida har bir mezon uchun mavjud majburiy hisobotga tayanuvchi tasdiqlash manbai belgilandi. "Yangi hisobot emas, mavjud hisobotni qayta o'qish" tamoyili ma'muriy xarajatni kamaytiradi va tizimni tez ishga tushirish imkonini beradi.

Beshinchidan, reestr mavjud bo'lmagan sharoitda empirik tadqiqot uchun yetti ramkadan iborat ko'p ramkali tanlanma protokoli hamda qamrov to'liqligini baholashning qayta qamrash usuli asoslandi.

Keyingi tadqiqot bosqichi — taklif etilgan metodikani pilot tanlanmada aprobat siyadan o'tkazish, ekspertlar o'rtasidagi kelishuv koeffitsiyentini hisoblash va chegaraviy qiymatlarni empirik ma'lumotlar asosida qayta kalibrlashdan iborat.

Ilova. Skring anketasi (dastlabki saralash uchun)

Anketa ko'p ramkali tanlanmadagi har bir subyektga qo'llaniladi. Javoblar 2-jadvaldagi mezonlarga solishtiriladi.

1. Tashkilotingizning ta'sis hujjatida (ustavida) ijtimoiy maqsad ko'rsatilganmi? Agar ha bo'lsa, uning aniq matnini keltiring.

2. Tashkilot qanday huquqiy shaklda ro'yxatdan o'tgan?

3. Faoliyatingizning asosiy yo'nalishi nima: nishonli guruhni ish bilan ta'minlash, ularga tovar yoki xizmat yetkazib berish, yoki har ikkalasi?

4. Xodimlarning umumiy soni nechta? Shundan nechtasi quyidagi toifalarga mansub: nogironligi bo'lgan shaxslar; uzoq muddat ishsiz yurganlar; boquvchisini yo'qotgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar a'zolari; sobiq mahkumlar; yetimxona bitiruvchilari?

5. Oxirgi moliyaviy yilda sof foyda olindimi? Agar ha bo'lsa, uning qancha qismi tashkilot faoliyatiga va ijtimoiy maqsadlarga qayta yo'naltirildi, qancha qismi ta'sischilar o'rtasida taqsimlandi?

6. Daromadingizning necha foizi tovar yoki xizmat sotishdan, necha foizi grant, xayriya yoki budjet mablag'laridan shakllanadi?

7. Tashkilot boshqaruvida xodimlar yoki xizmat oluvchilar vakillari ishtirok etadimi? Qanday shaklda (kengash a'zoligi, ovoz berish huquqi, maslahat organi)?

8. So'nggi uch yilda davlat tomonidan qanday qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalandingiz (imtiyozli kredit, grant, soliq imtiyoz, davlat xaridi)?

9. Tashkilot qaysi hududda va qachondan beri faoliyat yuritadi?

10. Sizga o'xshash faoliyat yurituvchi boshqa tashkilotlarni bilasizmi? (Qorbola usuli uchun.)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Borzaga C., Defourny J. (eds.) The Emergence of Social Enterprise. – London: Routledge, 2001. – 400 p.
2. Defourny J., Nyssens M. Social Enterprise in Europe: Recent Trends and Developments // Social Enterprise Journal. – 2008. – Vol. 4, No. 3. – P. 202–228.
3. European Commission. Social Enterprises and Their Ecosystems in Europe: Comparative Synthesis Report. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020. – 194 p.
4. Kerlin J.A. A Comparative Analysis of the Global Emergence of Social Enterprise // VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations. – 2010. – Vol. 21, No. 2. – P. 162–179.
5. Act on the Promotion of Social Enterprises (Republic of Korea, 2007). – URL: www.socioeco.org
6. Legge 8 novembre 1991, n. 381 “Disciplina delle cooperative sociali” (Italiya Respublikasi).
7. Qozog‘iston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi, 6-1-bob. – URL: adilet.zan.kz
8. Santos F.M. A Positive Theory of Social Entrepreneurship // Journal of Business Ethics. – 2012. – Vol. 111, No. 3. – P. 335–351.
9. Doherty B., Haugh H., Lyon F. Social Enterprises as Hybrid Organizations: A Review and Research Agenda // International Journal of Management Reviews. – 2014. – Vol. 16, No. 4. – P. 417–436.
10. Ebrahim A., Battilana J., Mair J. The Governance of Social Enterprises: Mission Drift and Accountability Challenges in Hybrid Organizations // Research in Organizational Behavior. – 2014. – Vol. 34. – P. 81–100.
11. Nicholls A. The Institutionalization of Social Investment: The Interplay of Investment Logics and Investor Rationalities // Journal of Social Entrepreneurship. – 2010. – Vol. 1, No. 1. – P. 70–100.
12. Narmetova D.A. O‘zbekistonda kichik biznesning iqtisodiy salohiyati: statistik tahlil va rivojlanish istiqbollari // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Maxsus son. – B. 254–260. – DOI: 10.5281/zenodo.15619810.
13. Xomidov M.X., Foziljonov R.Q., Do‘smatov M.E. Mamlakatimizda davlat tomonidan tadbirkorlik sohani qo‘llab-quvvatlanishi ahamiyati va hozirgi holati. – 2024. – B. 65–74. – DOI: 10.5281/zenodo.10912753.
14. Turopova N., Abdullayev K. O‘zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik // Journal of Universal Science Research. – 2024. – Vol. 2, No. 11. – B. 123–126. – DOI: 10.5281/zenodo.14170389.
15. BMT Taraqqiyot dasturi. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi: baholash va tavsiyalar. – Toshkent: BMTTD, 2025. – 96 b.
16. O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi. – www.lex.uz

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

